Mahsulot sotuvi

https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/activities/sale

Ichki bozorni kimyo mahsulotlari shu jumladan qishloq xo‘jaligini mineral o‘g‘itlar bilan ta’minlash

Muhtaram Prezidentimiz kimyo sanoatini rivojlantirish, uning iqtisodiy va moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish hamda qishloq xo‘jaligiga mineral o‘g‘itlarni barqaror yetkazib berishga alohida e’tibor qaratib, bir qator qarorlarni tasdiqlab berdilar.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-noyabrdagi PQ-3386-son qarori asosida mineral o‘g‘itlarni iste’molchilarga yetkazib berishda bozor tamoyillari, jumladan birjada ochiq savdolar orqali sotish yo‘lga qo‘yildi.
Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2018-yildagi PQ 3574 sonli qarori bilan qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini keng joriy etish hamda qishloq xo‘jaligida moliyalashtirish va o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini tubdan takomillashtirish, shu asosda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar va ularga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilash, rentabelligini oshirish maqsadida 2018-yilning 1-martidan boshlab, qishloq xo‘jaligiga mineral o‘g‘itlarni bozor munosabatlari asosida faqat birja savdolari orqali sotish mexanizmi joriy qilindi.
Agar tarixga nazar solsak, kimyo korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mineral o‘g‘itlarni qishloq xo‘jaligi korxonalariga g‘alla va paxta uchun yagona monopol mavqega ega bo‘lgan “Agrokimyohimoya” jamiyatlari (Qishloqxo‘jalikkimyo) tomonidan amalga oshirilardi.
Hozirda, qishloq xo‘jiligi mahsulotlari yetishtiruvchilari birja savdolari orqali kimyo korxonasidan vositachilik ustamalarsiz mineral o‘g‘itlarni xarid qilishning imkoniyati paydo bo‘ldi.
Shuningdek, qishloq xo‘jaligi korxonalari va mineral o‘g‘it ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida o‘zaro shaffov hisob-kitoblar yo‘lga qo‘yildi.
Qishloq xo‘jaligi korxonalarida mineral o‘g‘itlarni tanlash imkoniyati paydo bo‘ldi.
Yetkazib berilayotgan mahsulotlarga oldindan 100 foiz to‘lovlarning amalga oshirilishi va buning natijasida debitor va kreditor qarzdorliklarning o‘sib ketishining oldi olindi.
Mineral o‘g‘it ishlab chiqaruvchi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilandi, rentabellik darajasi oshirildi.
Bundan tashqari, fermer xo‘jaliklariga qulayliklar yaratish maqsadida har bir mineral o‘g‘it ishlab chiqaruvchi kimyo korxonalari tomonidan respublika xududlarida hususiy tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda mineral o‘g‘it saqlash uchun vakolatli omborlar tashkil etildi, mineral o‘g‘itlar birja savdolariga ushbu joylardagi omborlardan ham savdoga qo‘yib borilmoqda.
Hozirda, “Ombor hisobini yuritishni avtomatlashtirilgan tizimini yaratish” maqsadida "Mening omborim" dasturi ishlab chiqilib ishra tyshirildi va ushbu ma’lumotlarni real rejimda “onlayn” kuzatilishi yo‘lga qo‘yildi.